

2025-yilga mo'ljallangan Biznes-rejaga muvofiq 2025-yilga mo'ljallangan rivojlanishning asosiy yo'nalishlari

(Bank Kuzatuv kengashining 28.11.2024-yildagi qarori bilan tasdiqlangan)

Bankning rivojlanish yo'nalishlari uzoq muddatli istiqbolda bank oldida turgan maqsadlardan kelib chiqqan holda va "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida belgilanadi. Chakana biznesni rivojlantirish va biznesni faol raqamlashtirish Bank faoliyatining yaqin yillar va uzoq muddatli istiqboldagi ustuvor yo'nalishlari sifatida ko'rib chiqiladi. Chakana xizmatlar bozorida bankning raqobatdosh ustunliklari axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali bank mahsulotlarining sifat tavsiflarini yaxshilash, mahsulot qatorining to'liqligi, bank infratuzilmasini uning xizmatlaridan foydalanuvchilarga yaqinlashtirish orqali erishiladi.

Bankning strategik ustuvorliklari quyidagilardan iborat:- yangi texnologiyalarni ishga solish;

- rentabellikning yuqori darajasini saqlab turish va operatsiyalarni amalga oshirishda risk - daromadlilikning maqbul nisbatiga erishish;
- biznesning yangi, istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirish.

Bankning asosiy vazifalari va umumiy strategiyasi. Bankning vazifalariga samaradorlik va moliyaviy foyda, ish tezligi va moslashuvchanlik ko'rsatkichlari bilan birga biznes ko'lamini oshirish kiradi, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bank kapitallashuvi darajasini oshirish, bank nazoratining xalqaro tamoyillari talablari doirasida tijorat banklarining kapital yetarliligi, likvidiligi va barqarorligi bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini mustahkamlash;
- faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning mijozlar bazasini sifat va miqdor jihatdan kengaytirish, yirik depozitorlardagi konsentratsiyani kamaytirish;
- yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini muddatli omonatlarga faol jalb etish, uzoq muddatli resurs bazasini ko'paytirish;
- aktivlar sifatini oshirish, qisqa muddatli kreditlar berish amaliyotini kengaytirish, muammoli kreditlar, asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikni undirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, kelgusida ularning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;
- jismoniy shaxslar uchun, shu jumladan ""Trastpay"" mobil ilovasi orqali taqdim etiladigan yangi kredit mahsulotlarini joriy etish.
- ""Trast Leasing"" va ""Trast Muamalat"" sho'ba kompaniyalari ishini faollashtirish.
- kredit liniyalarini jalb qilish;
- sifat menejmenti tizimining ISO 9001:2015 standarti bo'yicha navbatdagi (2 yilda bir marta) sertifikat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ISO 37001:2016 standarti bo'yicha yillik sertifikat;
- axborot xavfsizligi standarti bo'yicha sertifikatlash;
- moliyaviy hisobotning 9-son xalqaro standarti bo'yicha moliyaviy aktivlarni tasniflash va baholashning yangi talablarini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash sifatini

oshirish;

- xodimlar bilan ishlash usullarini takomillashtirish, xodimlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, "o'quv markazi"ning samarali ishlashini ta'minlash.